

O'ZBEKISTONDA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TIZIMINING RIVOJLANISHI

Pardayev Zafar Shukurovich,

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb-hunar ta'limi, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borishda ahamiyat berilishi lozim bo'lgan pedagogik, psixologik jarayonlar va bu jarayonlarning o'quvchi yoshlar va o'smirlarning kelajak hayotida tutadigan o'rni haqidagi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: psixologik markaz, kambag'allik, ishsiz fuqaro, kasb-hunar bandlik, tizim, diagnostik suhbat, psixologik, fiziologik va tashkiliy asoslar.

Аннотация: В данной статье содержатся комментарии о педагогических и психологических процессах, которым следует придавать значение в профессиональном образовании и профориентации, а также о роли этих процессов в дальнейшей жизни студентов и подростков.

Ключевые слова: психологический центр, бедность, безработный гражданин, профессиональная занятость, система, диагностическое интервью, психологические, физиологические и организационные основы.

Abstract: This article contains comments on pedagogical and psychological processes that should be given importance in vocational education and career guidance, as well as on the role of these processes in the future lives of students and adolescents.

Key words: psychological center, poverty, unemployed citizen, professional employment, system, diagnostic interview, psychological, physiological and organizational foundations.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzviyligini ta'minlash va o'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatishda mamlakatimizda qabul qilingan — "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Halqaro mehnat tashkilotining Nizomlari, konvensiyalari va takliflar, bir qator hujjatlar, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning bu sohadagi ishlarining amaliy tajribalari asos qilib olingan. Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlariga asosan maktabda kasbga yo'naltirish bo'yicha mashg'ulotlar 8-9 sinflarda amalga oshiriladi. 8-sinfda kasblar haqida — kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasb-hunar maktablari, kasblar va ixtisosliklar asosida axborot berish davom ettirilishi bilan bir qatorda o'quvchilarga kasb egallash yo'llari, kasb tanlashda tibbiy nomuvofiqliklar, kasbga yaroqlilik va boshqa kompetensiyalarni shakllantirib boriladi. Maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish birgina texnologiya o'qituvchisining ishi bo'lib qolmasdan, balki butun maktab jamoasining, mahalla, otanonalar, jamoatchilikning birgalikdagi ishidir. Maktabda fan o'qituvchilari mavzuni yoritish jarayonida kasblar bilan bog'lab o'tishsa, maktab psixologi va rahbariyati o'quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishsagina o'quvchilarga kasb tanlashlarida ko'mak bergan bo'lishadi. Shuni ta'kidlash zarurki, o'qituvchilar O'zbekiston Respublikasida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar o'quvchi yoshlarni va aholini kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish — ish o'rinlarini bo'shab qolish jarayonlari jadallashadigan va ishchilarning malakalariga qo'yiladigan sifat talablari oshib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Aholini maqsadga muvofiq tarzda va samarali bandligini ta'minlashdagi kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy roli shundaki, yoshlar va aholi tomonidan kasbning ongli va ilmiy asoslangan tanlovi ularni mehnat faoliyatida yuqori natijalarga erishishda zamin yaratadi, iqtisodiyot sohalaridagi

kasb hunarga bo'lgan mavjud ehtiyojlarni hisobga olgan holda mehnat resurslarini oqilona taqsimlaydi hamda insonlarning ish qidirish, ta'lim va kasbiy faoliyat turini tanlashlaridagi zo'riqish holatlarini oldini olishga katta yordam beradi.

Hozirgi kunda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish, aholining ishchanlik faolligini oshirish, kambag'al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali bandligini ta'minlashga qaratilgan davlat miqyosidagi keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda.

Shu jumladan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha quyidagilarni ham aytib o'tish maqsadga muvofiq:

1. Kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni sodda qilib ifodalash.
2. Psixolog va o'qituvchilarning kasb tanlashlari yuzasidan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishlari, o'quvchilar bilan kasbga doir individual suhbatlar olib borishlari, o'quvchi va uning ota-onasi bilan birgalikda kasbga yo'naltirish metodikalari natijalarini ko'zdan kechirish, maslahatlashish.
3. O'quvchilarni kasbning asosiy guruhlari, turlari bilan yaqindan tanishtirish; muayyan kasb oldiga qo'yiladigan shaxsning fiziologik, psixologik jixatlari hamda kasb o'rganishning yo'l-yo'riqlari bilan tanishtirishni tashkil qilish.
4. Texnologiya darslarida o'quvchilardagi dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va shu kasbga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish.
5. Psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotga tadbiiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish.
6. Joylarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jihozlash.
7. Kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jihatdan tayyorlash kabilaro'quvchilar oldidagi kasb tanlashda yuzaga keladigan muammolarni oz bo'lsada hal qilishga yordam beradi

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazi va u orqali boshqa tashkilotlarning ilmiy-metodik rahbarligida:

- o'quvchilarning kasb-hunarga layoqat yo'nalishlari va qobiliyatlari darajasini tashhis etish ishlarini maktablarda doimiy ravishda olib borilishini;
- har bir o'quvchi haqida uning qiziqishlari, intilish va layoqatlari, erishgan yutuq va kamchiliklari, aqliy va umumiy rivojlanishi haqidagi ko'p yillik psixologik va pedagogik tashhis ma'lumotlari bankini tashkil etilishi, tartibga keltirilishi, maxsus daftar va dasturlar yordamida qayd etib borilishini;

- kasb-hunar klassifikatori va hududda mavjud bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha axborot to'playdi va targ'ibot qilishni tashkil etadi.

Ta'limda iqtidorli o'quvchilarning rivojlanish qobiliyatlarini maktab psixologlari orqali nazorat qilish, iste'dodli deb topilgan o'quvchi yoshlarning hududiy bankini yaratilishiga asos bo'ladi. Hududlarda psixologik markazlar tashkil qilish orqali esa nafaqat o'quvchilarni balki, markaz orqali shu hududda istiqomat qilayotgan yoshlarni ham kasbga yo'naltirish mumkin bo'ladi. Bu ularning ijtimoiy-oilaviy muhiti haqida ma'lumotlar yig'ishni, intellektual ko'rsatkichlarini, kasb-hunarga moyilliklarini, qiziqishlarini va ko'nikmalarini inobatga oladi, ehtiyojga qarab tegishli metodik, psixologik, tibbiy yordam usullari psixologik markaz tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Psixologik markaz o'z hududi doirasida istiqomat qiluvchi yashovchi o'quvchilar orasidan jismonan zaif va aqliy rivojlanishida orqada qolgan yoshlar bo'lganlarni o'zining nazoratiga oladi, ular haqida alohida ma'lumotlar bankini yaratadi, maktab jamoasi, ota-onalar bilan hamkorlikda ularga oilada, shuningdek

tegishli maxsus ta'lim muassasalarida bilim olishlari uchun muhim bo'lgan tavsiyalar beradi, ularga metodik, psixologik va tibbiy yordam berishni tashkil qiladi. Maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida bolalar va o'quvchi-yoshlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda, kasb-hunarga yo'naltiruvchi tadbirlarning o'tkazilishida markaz metodik va amaliy yordam beradi, bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qiladi va birlashtiradi. O'z hududi doirasida mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining bo'linmasi orqali oladi, o'rganadi va zarur bo'lgan kasb-hunarlar haqida umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislar bilan maxsus kechalar, suhbat va turli xil musobaqalar uyushtirishda yordam ko'rsatilishi yoshlarning biror bir kasbni tanlashlariga yechim topishiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida yurtimizda ehtiyojmand oilalar sonining kamayishiga, ishsizlikning oldini olishga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltaboyev S.A. Tolipov U. Umumiy o'rta talim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. – Toshkent: TDPU, 2000. 36 b.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. Toshkent: Fan, 2004.
3. K.Davlatov, Sh.Kuliyeva, Z.Sh.Shamsiyeva .Ishlab chiqarish va kasb hunarga yo'naltirish asoslari Toshkent. 2006 yil.